

Mavzu: **Nutq**

Aa Daraxtlar havoni tozalaydi.

daraxt



**Nutq** – talaffuz qilinadigan, tinglanadigan, yoziladigan yoki o‘qiladigan muloqot vositasi.



Qadimda odamlar o‘z fikrlarini ifodalash uchun turli usullardan foydalanishgan. Avvaliga ular fikrlarini rasmlar orqali bildirishgan. Keyinchalik maxsus belgilar va harflar paydo bo‘lgach, yozuvlar toshga, loy taxtachalarga, daraxt po‘stlog‘iga va qog‘ozga yozilgan. Bu yozuvlar orqali biz o‘sha davr odamlarining hayoti haqida bilib olamiz. Hozirda esa bunday rasmi izohlarni yo‘l belgilarida uchratamiz.



**1-mashq.** O‘qing. Matndagi uch bo‘g‘inli so‘zlarni bo‘g‘inga ajratib yozing.

Samarqand qadimdan ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lgan. Hunarmandlar qog‘oz ishlab chiqarish sir-sinoatlarini o‘rganishgan. Bu hunar Buyuk Ipak yo‘li orqali Xitoydan kirib kelgan. Samarqand qog‘ozi tut daraxti po‘stlog‘idan tayyorlangan. Qog‘oz juda sifatli bo‘lgani uchun Sharq va G‘arb bozorlarini egallagan. Ko‘pgina qadimiy qo‘lyozmalar aynan Samarqand qog‘oziga yozilgan.



**2-mashq.** Topishmoqlarning javobini toping. Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, ko'chiring.



Sochlarim toli...-toli...,  
Topa qol do'stim Oli....

...og'da ...og'da yashaydi,  
Qishin-yozin yashnaydi.



**3-mashq.** O'qing. Yozuv paydo bo'lguniga qadar insonlar qanday muloqot qilganliklarini bilib oling.

**Imo-ishoralar orqali** – qo'l harakatlari va mimika yordamida fikr almashganlar.

**Rasmlar orqali** – toshlarga va devorlarga rasmlar chizib, voqealarni ifoda etganlar.

**Belgilar orqali** – turli belgilar yordamida xabar yetkazganlar.

**Og'zaki nutq orqali** – odamlar suhbatlashib, bir-biriga fikrlarini aytishgan.



**4-mashq.** O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Matnga sarlavha qo'yib, husnixat bilan ko'chiring.



O'zbekiston nihoyatda go'zal tabiat<sup>1</sup> manzarasiga ega tog' yonbag'irlari archazorlar bilan qoplangan tuprog'i serhosil va unumdor dalalarida poliz ekinlari yetishtiriladi bog'larida esa shirin-shakar mevalar pishib yetiladi.

